

<https://www.wikipedia.org> sayti orqali 2024-y.

2. Nunan, David.2003.” Practical English Language Teaching: Speaking. McGraw Hill Companies Inc. New York.

<http://www.english-at-home.com/speaking/>.

3. Dehqanova G. A.(2024). THE IMPORTANCE AND ROLE OF LEXICAL COMPETENCE IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO STUDENTS. 2024. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(05), 16–23. Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/1451>

4. Zakirovich, D. Z. (2025). INTEGRATIVE LANGUAGE TEACHING TO STUDENTS OF CHEMISTRY FACULTY. PROSPECTS OF TEACHING ENGLISH FOR PROFESSIONAL PURPOSES IN NON-PHILOLOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: PROBLEMS AND SOLUTIONS, 383-389.

5. MaM Socheath “Simple ways to improve English speaking in teaching and learning” maqolasidan [63-p,68-70p]. 2010-y.

6. Ahmadjanovna, D. G. (2024). Improving the scientific and methodological aspects of preparing students for effective communication techniques and innovative technologies in teaching foreign languages. Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 15(3), 81-88.

7. Yo’ldosheva Sh. Ingliz tilini o’qitishda kommunikativ yondashuv. Toshkent: O’zbekiston xalq ta’limi nashriyoti. 2012.

8. Widdowson H.G. Teaching Language as Communication. Oxford University Press.1978.

9. Begimova T. Zamonaviy texnologiyalarni ingliz tili o’qitishda qo’llash. Toshkent: O’zbekiston. 2018

RAQAMLI DUNYODA TILLARNI YASHAB QOLISHGA KURASHI

Sobirjonova Malohat Qodirjon qizi

Namangan State Pedagogical Institute

A second-year student of Foreign Languages Department

Email: Sobirova.0306@gmail.com

Anotatsiya: Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari dunyo tillarining rivojlanishiga turlicha ta’sir ko’rsatmoqda. Ayrim tillarda so’zlashuvchilar sonining kamayishi ularning asta-sekin yo’qolib borishiga sabab bo’lmoqda. Mazkur maqolada yo’qolib borayotgan tillar muammosi, raqamli texnologiyalar va internetning tillar taqdiriga ta’siri hamda sun’iy intellekt va zamonaviy platformalarning tillarni saqlab qolishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Shuningdek, yagona global tilning shakllanishi bilan bog‘liq ijtimoiy-madaniy oqibatlar ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: tillarning yo‘qolishi, raqamli muhit, globallashuv, sun‘iy intellekt, lingvistik xilma-xillik, global til.

Annotation: The processes of globalization and rapid digitalization are significantly influencing the development of the world's languages. The decreasing number of native speakers of certain languages has led to the gradual disappearance of many linguistic communities. This article examines the issue of endangered languages, the impact of digital technologies and the Internet on linguistic diversity, and the potential role of artificial intelligence and modern digital platforms in preserving minority languages. In addition, the cultural and social consequences of the emergence of a single global language are discussed.

Keywords: language extinction, digital environment, globalization, artificial intelligence, linguistic diversity, global language.

Аннотация: В условиях глобализации и цифровизации современные языки мира подвергаются значительным изменениям. Сокращение числа носителей некоторых языков приводит к постепенному исчезновению языковых сообществ. В статье рассматривается проблема исчезающих языков, влияние интернета и цифровых технологий на языковое разнообразие, а также возможности искусственного интеллекта и современных цифровых платформ в сохранении языков. Кроме того, анализируются культурные и социальные последствия возможного перехода к единому мировому языку.

Ключевые слова: исчезновение языков, цифровая среда, глобализация, искусственный интеллект, языковое разнообразие, мировой язык.

Asosiy qism. Til har bir millatning ma’naviy qiyofasi, tarixiy xotirasi va madaniy merosini o‘zida mujassam etgan muhim ijtimoiy hodisadir. Til orqali xalqning dunyoqarashi, urf-odatlar va qadriyatlar avloddan-avlodga uzatiladi. Shu sababli til faqat aloqa vositasi emas, balki millatning mavjudligini ifodalovchi muhim madaniy fenomen sifatida ham qaraladi. Jadid mutafakkiri Abdulla Avloniy bu haqda shunday yozgan edi: *“Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurg‘an o‘yinayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”* (Avloniy, 1992).

Bugungi kunda dunyoda taxminan 7000 ga yaqin til mavjud bo‘lib, ular insoniyatning madaniy va intellektual boyligini ifodalaydi. Tilshunos olim David Crystalning ta’kidlashicha, til insoniyat tarixida bilim, tajriba va dunyoqarashni uzatishning eng muhim vositasi

hisoblanadi (Crystal, 2000). Biroq globallashuv jarayonlari, urbanizatsiya va migratsiya tufayli ayrim kichik tillarning qo‘llanish doirasi tobora torayib bormoqda.

UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda mavjud tillarning qariyb yarmi XXI asr oxiriga borib yo‘qolib ketish xavfi ostida turibdi (UNESCO, 2010). Bunday tillar ilmiy adabiyotlarda “endangered languages” – ya’ni yo‘qolib ketish xavfi ostidagi tillar deb yuritiladi. Til yo‘qolishi bilan birga o‘sha xalqning tarixiy xotirasi, og‘zaki ijodi, afsonalari va madaniy qadriyatlari ham yo‘qolib boradi.

Har bir til dunyoni o‘ziga xos tarzda tasvirlaydi. Tildagi so‘zlar, iboralar va grammatik tuzilmalar xalqning tafakkuri va hayot tarzini aks ettiradi. Til tufayli jamiyat a’zolari tomonidan yaratilgan bilimlar umumlashadi va avloddan-avlodga yetkaziladi. Shu jihatdan til madaniy merosni saqlash va rivojlantirishning asosiy vositasi hisoblanadi.

So‘nggi yillarda tillarning yo‘qolishiga yangi omil – raqamli muhit ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Tadqiqotchi András Kornai raqamli davrda tilning yashab qolishi uning internet va texnologik platformalarda qanchalik faol qo‘llanishiga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, “raqamli makonda mavjud bo‘lmagan til sekin-asta kommunikativ hayotdan ham chekinib boradi” (Kornai, 2013).

Bugungi kunda internet kontentining katta qismi ingliz tilida yaratilmoqda. Ayrim tadqiqotlarga ko‘ra, internetdagi axborotning asosiy ulushi ingliz tiliga to‘g‘ri keladi. Bu holat kichik tillarning raqamli makonda kamroq qo‘llanishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada ayrim xalqlar kundalik muloqotda ham global tillardan foydalanishga o‘tmoqda.

Tarixan tillarning yo‘qolishi ko‘pincha urushlar, kasalliklar yoki demografik omillar bilan bog‘liq bo‘lgan. Ammo zamonaviy davrda tilning yo‘qolishi ko‘proq ijtimoiy va texnologik omillar bilan izohlanadi. BMT mutaxassislari tillarning yo‘qolishiga ikki asosiy sababni ko‘rsatadi: birinchisi – tilning raqamli makonda faol qo‘llanmasligi, ikkinchisi esa kuchliroq ijtimoiy mavqega ega tilning ta’siri ostida qolib ketishidir.

Shu bilan birga, global tillarning rivojlanishi ham ijtimoiy taraqqiyotga ma’lum darajada xizmat qiladi. Bugungi kunda xalqaro aloqalar, ilmiy hamkorlik, turizm va ta’lim sohasida chet tillarini bilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ko‘plab yoshlar xorijiy universitetlarda tahsil olishga intilmoqda, bu esa ko‘p tillilikni yanada rivojlantirmoqda.

Biroq chet tillarini o‘rganish ona tiliga e’tiborsizlik hisobiga amalga oshmasligi lozim. Ma’rifatparvar olim Is’hoqxon Ibrat bu borada shunday fikr bildirgan: *“Bizning yoshlar albatta boshqa tillarni o‘rganishga intilsinlar, ammo avvalo o‘z ona tiliga hurmat bilan qarasinlar. O‘z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdir”* (Ibrat, 2005).

Shuningdek, mashhur yozuvchi Chingiz Aytmatov tilning insoniyat madaniyatidagi o‘rnini quyidagicha ta’riflaydi: *“Har bir til insoniyat uchun alohida bir dunyodir. Agar biror til yo‘qolsa, u bilan birga butun bir koinot halok bo‘ladi”* (Aytmatov, 1988).

Shu sababli bugungi kunda tillarni saqlab qolish uchun yangi texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli platformalarda kichik tillarda kontent yaratish, mobil ilovalar ishlab chiqish, sun’iy intellekt asosidagi tarjima tizimlarini yaratish va ovozli buyruqlarni tushunadigan dasturlar ishlab chiqish tillarning yashab qolishiga xizmat qilishi mumkin.

Masalan, kam qo‘llaniladigan so‘zlarning izohlarini va sinonimlarini o‘z ichiga olgan mobil ilovalar yaratish, shu tilda videolar, podkastlar va maqolalar ishlab chiqish tilning internetdagi ulushini oshirishga yordam beradi. Tilning zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi uning hayotiylikini ta’minlaydi.

Xulosa. Raqamli davrda tillarning yashab qolish kurashi – bu nafaqat lingvistik masala, balki milliy o‘zlik va madaniy merosni saqlash bilan bog‘liq muhim ijtimoiy jarayondir. Zamonaviy texnologiyalar, internet va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali kichik tillarni raqamli muhitga olib kirish mumkin. Bu esa ularning kelajak avlodlarga yetib borishini ta’minlaydi. Chunki insoniyat madaniyati bir xil til emas, balki turli tillar va madaniyatlarning rang-barangligi bilan boydir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avezova, D., Sobirova, F., Sotiboldiyev, A., Muminjonova, S., Tursunboyeva, M., Sobirova, R., ... & Kibriyev, B. (2026). Exploring Genetic and Epigenetic Influences on Language Acquisition and Cognitive Development. *Genetics and Molecular Research*, 25(1).
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
3. Aytmatov Ch. Ona yer qo‘shig‘i. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1988.
4. Crystal D. Language Death. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.
5. Ibrat I. Lison ut-tayr (Sakkiz til lug‘ati). – Toshkent: Ma’naviyat, 2005.
6. Kornai A. Digital Language Death. – PLOS ONE, 2013.
7. Mahmudov N. Til. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2017.
8. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. – Xalq so‘zi, 2019.

9. Shaxlo, M. M. (2025). DESIGNING AN ENGLISH FOR BUSINESS PURPOSES (EBP) COURSE: A TASK-BASED AND PROBLEM-BASED APPROACH FOR PRE-INTERMEDIATE BUSINESS PROFESSIONALS. PROSPECTS OF TEACHING ENGLISH FOR PROFESSIONAL PURPOSES IN NON-PHILOLOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: PROBLEMS AND SOLUTIONS, 518-525.
10. UNESCO. Atlas of the World's Languages in Danger. – Paris: UNESCO Publishing, 2010.
11. Yusupova Sh. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.

PRAGMATIC FUNCTIONS OF MODAL VERBS AND COMMON ERRORS AMONG UZBEK LEARNERS

Odiljonova Munisa Nodirbek qizi

Student of Namangan State Pedagogical Institute, Foreign Languages Department, Email: odiljonova711@gmail.com

*Supervisor: **Raximjonova Muxlisa Rustamjon qizi** Teacher at Namangan State Pedagogical Institute, Foreign Languages Department*

Abstract: This article focuses on the use of modal verbs beyond grammar and meaning. It explains how they show speaker intention, politeness, and formality. The study distinguishes between epistemic modality (possibility or certainty) and deontic modality (obligation or permission). It also examines usage patterns and common errors by Uzbek learners, highlighting the importance of context and real-life communication.

Key words: *modal verbs, modality, pragmatics, speaker intention, politeness, formality, epistemic modality, deontic modality, usage patterns, learner errors, Uzbek learners, communication.*

Annotatsiya: Ushbu maqola modal fe'llarning faqat grammatik shakli va ma'nosi bilan cheklanib qolmay, balki ularning kengroq qo'llanilishini ko'rib chiqadi. Unda modal fe'llar qanday qilib so'zlovchining niyatini, muloyimlik darajasini va rasmiylikni ifodalashi tushuntiriladi. Tadqiqot epistemik modallik (imkoniyat yoki ishonchlik darajasi) va deontik modallik (majburiyat yoki ruxsat) o'rtasidagi farqni ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada o'zbek o'rganuvchilarining qo'llashdagi xususiyatlari va keng tarqalgan xatolari tahlil qilinib, kontekst va real hayotdagi muloqotning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *modal fe'llar, modallik, pragmatika, so'zlovchi niyati, muloyimlik, rasmiylik, epistemik modallik, deontik modallik,*